# YASHIL

## IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

№11




ISSN: 2992-8982

https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/

2025

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

*Elektron nashr. 89 sahifa.*
*2025-yil, noyabr*

**Bosh muharrir:**
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

**Bosh muharrir oʻrinbosari:**
**Karimov Norboy Gʻaniyevich**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

**Tahrir hay'ati:**
**Salimov Oqil Umrzoqovich,** Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Rae Kvon Chung,** Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, “Nobel” mukofoti laureati
**Osman Mesten,** Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – Oʻzbekiston doʻstlik jamiyati rahbari
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Sayfullo Normatovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Siddiqova Sadoqat Gʻafforovna,** pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Maxmudov Nosir,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Ikrom Akramovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Eshtayev Alisher Abdugʻaniyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Hakimov Nazar Hakimovich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), professor
**Ali Konak (Ali Koʻnak),** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
**Cham Tat Huei,** falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixoʻja oʻgʻli,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dots.
**Utayev Uktam Choriyevich,** Oʻz.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshligʻi oʻrinbosari
**Ochilov Farkhod,** Oʻzbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshligʻi
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Axmedov Javohir Jamolovich,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)
**Toxirov Jaloliddin Ochil oʻgʻli,** texnika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), katta oʻqituvchi
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
**Djudi Smetana,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Krissi Lyuis,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Glazova Marina Viktorovna,** Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Sevil Piriyeva Karaman,** falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon oʻgʻli,** TDIU ITI departamenti rahbari
**Ochilov Bobur Baxtiyor oʻgʻli,** TDIU katta oʻqituvchisi
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna,** Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Editorial board:**

**Salimov Okil Umrzokovich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Rae Kwon Chung, South Korea,** Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
**Osman Mesten,** Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Sayfullo Normatovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Siddikova Sadokat Gafforovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Makhmudov Nosir,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Samadov Askarjon Nishonovich,** Candidate of Economic Sciences, Professor
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Ikrom Akramovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khakimov Nazar Khakimovich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
**Ali Konak,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
**Cham Tat Huei,** Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Utayev Uktam Choriyevich,** Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
**Ochilov Farkhod,** Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Akhmedov Javokhir Jamolovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
**Judi Smetana,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Chrissy Lewis,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Glazova Marina Victorovna,** Doctor of Sciences in Economics (Moscow))
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Sevil Piriyeva Karaman,** Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli,** Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli,** Senior lecturer at TSUI
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:
**Berkinov Bazarbay,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Po‘latov Baxtiyor Alimovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xalikov Suyun Ravshanovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Rustamov Ilhomiddin,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**G‘afurov Doniyor Orifovich,** pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Fayziyev Oybek Raximovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** katta o‘qituvchi
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** mustaqil tadqiqotchi
**Komilova Nilufar Karshiboyevna,** Geografiya fanlari doktori, professori
**Umirzoqov Ja’sur Artiqboy o‘g‘li,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
**Zebo Kuldasheva,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc ), dotsent

Board of Experts:
**Berkinov Bazarbay,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khalikov Suyun Ravshanovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Rustamov Ilkhomiddin,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Kamilova Iroda Khusniddinovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
**Gafurov Doniyor Orifovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
**Fayziyev Oybek Rakhimovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** Senior Lecturer
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** Independent Researcher
**Komilova Nilufar Karshiboyevna,** Doctor of Geographical Sciences, Professor
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
**Zebo Kuldasheva,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: “Ma’rifat-print-media” MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘zR Tabiat resurslari vazirligi, O‘zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:
““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali
O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

# MUNDARIJA

BANK AKTIVLARI VA PASSIVLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH ....................34
**Safarov Sanjar Ravshan oʻgʻli**

OʻZBEKISTONNING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISH STRATEGIYALARI....................38
**Madraximova Irodaxon Sherzodbek qizi**

HUDUDIY XIZMAT KOʻRSATISH KORXONALARIDA MENEJMENT SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING RAQAMLI TRANSFORMATSIYA MODELI ....................43
**Maxmudova Nozimaxon Baxriddinxonovna**

DAVLATNING BUDJET SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI ....................50
**A.A. Ismailov**

DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGINING MEXANIZMINI SAMARALI TASHKILLASHTIRISHDA MOLIYAVIY MANBALARNI SHAKLLANTIRISHNI YOʻNALISHLARI ....................56
**Mansurov Mansur Alisherovich**

ANTIKRIZISLI BOSHQARUV TIZIMLARIDA RANGLI SIGNAL MEXANIZMLARINING FUNKSIYALARI....................61
**Aliqulov Aziz Haydarjonovich**

XODIMLARNI MOTIVATSIYALASHNING XALQARO MODELLARINI OʻZBEKISTON KORXONALARIDA QOʻLLASH IMKONIYATLARI....................66
**Yormamatov Qodirjon Juraqulovich**

RAQAMLI IQTISODIYOT OMILLARI VA ULARNING QISHLOQ XOʻJALIGI KORXONALARINING SAMARADORLIGIGA TAʼSIRI ....................71
**Yaxshiyev Shahzod Sherali oʻgʻli**

OLIY TAʼLIM MUASSASALARI VA MEHNAT BOZORI INTEGRATSIYASI BOʻYICHA XORIJ TAJRIBALARI ....................78
**Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich**

YASHIL IQTISODIYOTGA OʻTISHDA RIVOJLANGAN VA RIVOJLANAYOTGAN DAVLATLAR TAJRIBASI ....................84
**Aripov Abdulaziz Sakijonovich**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

# YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISHDA RIVOJLANGAN VA RIVOJLANAYOTGAN DAVLATLAR TAJRIBASI

**Aripov Abdulaziz Sakijonovich**
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Yashil iqtisodiyot” kafedrasi assistenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonining dolzarbligi hamda rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasi qiyosiy tahlil qilinadi. Rivojlangan davlatlar — Yevropa Ittifoqi, AQSh, Yaponiya va Janubiy Koreya misolida — kuchli moliyaviy baza, yuqori texnologiyalar hamda aholining ekologik ongi tufayli yashil transformatsiyani muvaffaqiyatli amalga oshirayotgani ko‘rsatiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, yashil iqtisodiyotga samarali o‘tish global hamkorlik, texnologiyalar transferi va moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni talab etadi.

Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, yashil transformatsiya, qayta tiklanuvchi energiya, ekologik muammolar, rivojlangan davlatlar, rivojlanayotgan davlatlar, xalqaro hamkorlik.

Abstract. This article examines the relevance of the transition to a green economy and provides a comparative analysis of the experiences of developed and developing countries. The cases of developed states — the European Union, the United States, Japan, and South Korea — demonstrate that a strong financial base, advanced technologies, and high levels of environmental awareness enable successful green transformation. The findings indicate that an effective transition to a green economy requires global cooperation, technology transfer, and financial support.

Key words: green economy, sustainable development, green transformation, renewable energy, environmental challenges, developed countries, developing countries, international cooperation.

Аннотация. В данной статье рассмотрена актуальность перехода к зеленой экономике и проведен сравнительный анализ опыта развитых и развивающихся стран. На примере развитых государств Европейского Союза, США, Японии и Южной Кореи показано, что благодаря сильной финансовой базе, высоким технологиям и экологическому сознанию населения зеленая трансформация осуществляется успешно. Результаты исследования показывают, что эффективный переход к зеленой экономике требует глобального сотрудничества, трансфера технологий и финансовой поддержки.

Ключевые слова: зеленая экономика, устойчивое развитие, зеленая трансформация, возобновляемая энергетика, экологические проблемы, развитые страны, развивающиеся страны, международное сотрудничество.

## KIRISH

Bugungi kunda insoniyat oldida turgan eng dolzarb muammolardan biri — ekologik inqiroz va iqlim o‘zgarishidir. Global isish, havoning ifloslanishi hamda resurslarning cheklanganligi yashil iqtisodiyotga o‘tishni zarurat darajasiga olib chiqmoqda.

Yashil iqtisodiyot — bu iqtisodiy o‘sishni ta’minlash bilan birga, atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytiradigan va resurslardan oqilona foydalanishga asoslangan modeldir. Rivojlangan hamda rivojlanayotgan davlatlar yashil iqtisodiyot sari turlicha yo‘l tutmoqda. Bu yo‘lda ularning tajribasi, imkoniyatlari va muammolari sezilarli darajada farqlanadi. Mazkur maqolada ikki guruh davlatlarning yondashuvlari qiyosiy tahlil qilinadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi o'n yilliklarda yashil iqtisodiyot tushunchasi ilmiy adabiyotlarda keng muhokama qilinmoqda. BMTning Atrof-muhit dasturi (UNEP, 2011)[1] yashil iqtisodiyotni iqtisodiy o'sish bilan birga ekologik muvozanatni ta'minlaydigan model sifatida ta'riflaydi. Jahon banki (World Bank, 2012) esa yashil o'sishni inklyuziv rivojlanishning muhim yo'nalishi sifatida ko'rib chiqadi.[2]

Rivojlangan davlatlar tajribasi ko'plab tadqiqotlarda o'rganilgan. Masalan, Yevropa Ittifoqining European Green Deal (2019) hujjati yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida barqaror energiya, uglerod neytralligi va innovatsiyalarni birinchi o'ringa qo'yadi. Stern (2007) tomonidan o'tkazilgan mashhur iqtisodiy tahlil esa iqlim o'zgarishiga qarshi choralar ko'rilmasa, iqtisodiy yo'qotishlar ancha ortishini ko'rsatgan. AQSh va Yaponiyada esa ilmiy manbalarda texnologik innovatsiyalar, xususan qayta tiklanuvchi energiya manbalari va yashil transportning jadal rivojlanishi ta'kidlanadi (OECD, 2023).

Rivojlanayotgan davlatlar tajribasida esa boshqa jihatlar ko'proq o'rganilgan. Xitoyda "yashil o'sish modeli" sanoat modernizatsiyasi va energiya samaradorligiga asoslanadi (State Council of China, 2021). Hindiston ilmiy adabiyotlarida esa quyosh energiyasi va arzon qayta tiklanuvchi resurslar muhim o'rin tutadi (Government of India, 2020). (O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi, 2021).[3] Shuningdek, akademik adabiyotlarda yashil iqtisodiyotning ijtimoiy-psixologik jihatlari ham muhokama qilinadi. Aholining ekologik ongi, iste'mol odatlari va davlatning rag'batlantirish siyosati yashil transformatsiyaning samaradorligini belgilovchi muhim omillar sifatida e'tirof etiladi (OECD, UNEP, ADB tadqiqotlari).[4]

Umuman olganda, mavjud ilmiy manbalar yashil iqtisodiyotga o'tishda rivojlangan davlatlar yetakchilik qilayotganini, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa moliyaviy va texnologik qo'llab-quvvatlashning hal qiluvchi rol o'ynashini ko'rsatadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonining rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasi qiyosiy tahlil qilinadi. Metodologiya asosida olingan natijalar yashil iqtisodiyotga o'tishda turli mamlakatlar duch kelayotgan imkoniyat va muammolarni kompleks tarzda o'rganish imkonini beradi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, rivojlangan mamlakatlar yashil iqtisodiyotga o'tishda yetakchi o'rin tutmoqda. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida 2020-yilda qayta tiklanuvchi energiya umumiy energiya iste'molining 22–25 foizini tashkil etgan bo'lsa, AQSh va Yaponiyada bu ko'rsatkich 15–18 foiz atrofida ushlab turiladi. Aholining ekologik ongi yuqori bo'lgani hamda davlat siyosatining kuchli rag'batlantirish choralariga asoslangani tufayli yashil transformatsiya tez sur'atlarda amalga oshmoqda.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda, jumladan Xitoy va Hindistonda, so'nggi yillarda qayta tiklanuvchi energiya manbalariga katta hajmda investitsiyalar yo'naltirilgan. Masalan, Xitoy quyosh panellari ishlab chiqarishda dunyoda yetakchi o'rinni egallab, 2022-yilda dunyo bo'yicha yangi o'rnatilgan quyosh energiyasi quvvatining qariyb 50 foizini ta'minlagan. Hindiston esa "National Solar Mission" dasturi doirasida 2030-yilga borib qayta tiklanuvchi energiya ulushini 40 foizga yetkazishni rejalashtirgan.

Markaziy Osiyo davlatlari, xususan O'zbekiston tajribasi, ma'lum muvaffaqiyatlar bilan birga muammolarni ham namoyon etmoqda. 2030-yilgacha mamlakat energiya iste'molida qayta tiklanuvchi energiyaning ulushini 25 foizga yetkazish strategiyasi qabul qilingan.

Rivojlangan davlatlarda yashil iqtisodiyotga o'tish moliyaviy barqarorlik va innovatsion texnologiyalar asosida tez sur'atlarda amalga oshmoqda. Rivojlanayotgan mamlakatlarda esa katta salohiyat mavjud bo'lsa-da, texnologik va moliyaviy imkoniyatlarni kengaytirishga alohida e'tibor qaratish zarur. Xalqaro hamkorlik, texnologiyalar transferi va investitsiyalarni jalb etish yashil transformatsiyaning muvaffaqiyatli amalga oshirilishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi (1-rasm).

1 UNEP. (2011). *Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication.* United Nations Environment Programme.
2 World Bank. (2012). *Inclusive Green Growth: The Pathway to Sustainable Development.* Washington, DC: World Bank.
3 O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi. (2021). Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish strategiyasi – 2030. Toshkent.
4 Asian Development Bank. (2020). Asia's Journey to Prosperity: Policy, Market, and Technology over 50 Years. Manila: ADB.




1-rasm. Rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda qayta tiklanuvchi energiya ulushi (%) taqqoslanishi (2023-yil ma'lumotlari asosida)

Diagrammada keltirilgan ma'lumotlar rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda qayta tiklanuvchi energiya (QTE) ulushining hozirgi holatini yaqqol ifodalaydi. Eng yuqori natija Xitoyga tegishli bo'lib, uning QTE ulushi 30 foizni tashkil etadi. Bu mamlakatda quyosh va shamol energetikasiga yirik sarmoyalar kiritilgani, shuningdek, urbanizatsiya jarayonining tezligi hamda ekologik siyosatning qat'iyligi bilan izohlanadi.

Yevropa Ittifoqi 25 foiz ko'rsatkich bilan ikkinchi o'rinda turadi. Ushbu natija Yevropaning "Yashil kelajak" strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli energiya transformatsiyasi bilan bog'liq. Hindiston (20%) va AQSh (18%) ham energiya bozorlarini diversifikatsiya qilish, ekologik toza texnologiyalarni joriy etish orqali ijobiy sur'atda rivojlanmoqda.

Yaponiya (15%) ko'rsatkich bilan oraliq pozitsiyada bo'lib, geotermal va offshore shamol energiyasini kengaytirishga e'tibor qaratmoqda. O'zbekistonning 10 foizlik ulushi esa mintaqaviy miqyosda sezilarli bosqich bo'lib, mamlakatda quyosh va shamol stansiyalarini rivojlantirish bo'yicha davlat strategiyasi bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Umuman olganda, diagramma yashil iqtisodiyotga o'tishning global tendensiyalarini aniq aks ettiradi (1-jadval).

1-jadval. Rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda qayta tiklanuvchi energiya (QTE) ulushi va strategik ustuvorliklari taqqoslanishi (2023-yil ma'lumotlari asosida)

| Davlatlar | **QTE ulushi (2023 ma'lumotlari)** | **Strategik maqsad** | **Asosiy resurs** | **Sabablar (ustuvorlik)** |
|---|---|---|---|---|
| **Rivojlangan davlatlar** | | | | |
| Yevropa Ittifoqi | 23% | 2030-yilgacha 42.5% QTE ulushiga erishish | Shamol, quyosh, biomassa | Energiya mustaqilligi, iqlim neytralligi, texnologik yetakchilik |
| AQSh | 20% | 2050-yilgacha karbon neytrallikka erishish | Quyosh, shamol, gidroenergiya | Energiya bozorini diversifikatsiya qilish, yashil ish o'rinlari yaratish |
| Yaponiya | 18% | 2030-yilgacha 36-38% QTE ulushiga erishish | Quyosh, shamol (offshore), geotermal | Atom energetikasiga alternativ, importga qaramlikni kamaytirish |

| Davlatlar | QTE ulushi (2023 ma'lumotlari) | Strategik maqsad | Asosiy resurs | Sabablar (ustuvorlik) |
|---|---|---|---|---|
| Janubiy Koreya | 9% | 2036-yilgacha 30% QTE ulushiga erishish | Quyosh, shamol, gidro | Iqlim o'zgarishiga qarshi kurash, energiya importini qisqartirish |
| **Rivojlanayotgan davlatlar** | | | | |
| Xitoy | 31% | 2060-yilgacha karbon neytrallikka erishish | Quyosh, shamol, gidro | Tez urbanizatsiya, havo ifloslanishini kamaytirish, texnologik eksport |
| Hindiston | 26% | 2030-yilgacha 50% elektrni QTE hisobidan ishlab chiqarish | Quyosh, shamol, biomassa | Energiya taqchilligi muammosi, arzon elektr ta'minoti |
| O'zbekiston | 10% | 2030-yilgacha 25% QTE ulushiga erishish | Quyosh, shamol | Energiya samaradorligini oshirish, tabiiy gazga qaramlikni kamaytirish |
| Qozog'iston | 4% | 2030-yilgacha 15%, 2050-yilgacha 50% QTE ulushi | Shamol, quyosh, gidro | Iqtisodiy diversifikatsiya, eksport yo'nalishini kengaytirish |
| Markaziy Osiyo | 5–12% | Energiya samaradorligini oshirish, QTE ulushini 25–30% ga yetkazish | Quyosh, shamol, gidro | Resurslardan samarali foydalanish, ekologik barqarorlik |

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, rivojlangan davlatlar yashil iqtisodiyotga o'tishda strategik yondashuvni texnologik innovatsiyalar, energiya xavfsizligi va iqlim neytralligi tamoyillariga asoslamoqda. Masalan, Yevropa Ittifoqi 2030-yilgacha QTE ulushini 42,5 foizga yetkazishni maqsad qilgan bo'lib, shamol va quyosh energiyasini asosiy resurs sifatida belgilagan. AQSh esa yashil ish o'rinlarini ko'paytirish va energiya bozorini diversifikatsiya qilish orqali 2050-yilgacha karbon neytrallikka erishishni rejalashtirmoqda. Yaponiya va Janubiy Koreya singari texnologik davlatlar ham atom energetikasiga alternativ sifatida quyosh va geotermal manbalarga tayanmoqda.

Rivojlanayotgan davlatlarda esa ustuvorlik energiya taqchilligini bartaraf etish, arzon elektr ishlab chiqarish va iqtisodiy diversifikatsiyani ta'minlashga qaratilgan. Xitoy va Hindiston qayta tiklanuvchi energiya ulushini tez sur'atlarda oshirmoqda, bu esa urbanizatsiya bosimlari va ekologik muammolarga javob sifatida qaraladi. O'zbekiston va Qozog'iston esa tabiiy gazga qaramlikni kamaytirish hamda eksport yo'nalishlarini kengaytirish orqali yashil energetika sektorini rivojlantirmoqda. Umuman olganda, har ikkala toifa mamlakatlar uchun QTE — barqaror iqtisodiy o'sish va energiya xavfsizligining asosiy drayveri hisoblanadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Yashil iqtisodiyotga o'tish jarayoni global miqyosda dolzarb masala bo'lib, unga erishish uchun barqaror rivojlanish tamoyillariga asoslangan strategiyalar ishlab chiqish zarur. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, ekologik jihatlarni inobatga olgan iqtisodiy siyosatlarni amalga oshirish orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlash mumkin. Yevropa Ittifoqi, AQSh va Yaponiya kabi mamlakatlar innovatsiyalar va ilg'or texnologiyalar yordamida energetika, transport va ishlab chiqarish sohalarida ekologik xavfsizlikni mustahkamlamoqda. Ushbu davlatlar barqaror resurslardan foydalanish va ijtimoiy adolat tamoyillariga amal qilgan holda, iqtisodiy rivojlanish bilan birga atrof-muhitni muhofaza qilishga intilmoqda.

Rivojlanayotgan mamlakatlar, xususan Hindiston va Xitoy, yashil iqtisodiyotga o'tishda iqlim o'zgarishi hamda resurslarni oqilona boshqarish muhimligini anglab, o'z strategiyalarini shakllantirmoqda. Xitoy o'zining yirik sanoat bazasi va innovatsion yondashuvlari yordamida ekologik jarayonlarni rivojlantirishga katta sarmoya yo'naltirmoqda. Afrika mamlakatlarida esa yashil iqtisodiyotni joriy etish uchun xalqaro hamkorlik va moliyaviy qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etib, bu omillar rivojlanish jarayonlarini tezlashtirmoqda. Yashil iqtisodiyotga o'tishda asosiy tamoyillar sifatida barqaror energiya manbalaridan foydalanish, resurslarni oqilona boshqarish va ijtimoiy adolatni ta'minlash alohida o'rin tutadi. Shu bilan birga, muammolar — xususan moliyaviy to'siqlar va texnologik cheklovlar — mavjud bo'lib, ularni bartaraf etish uchun ichki va tashqi sharoitlarning yaxshilanishi talab etiladi. Strategiyalarda davlat siyosati, xususiy sektor va xalqaro hamkorlikning uyg'unligi muhim o'rin tutadi.

Yashil iqtisodiyot va iqlim o'zgarishi o'rtasidagi uzviy bog'liqlik ekologik muhofaza va innovatsiyalar sohasida yangi imkoniyatlar yaratmoqda. O'zbekistonda ham yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyalari bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda, bunda milliy resurslar va xalqaro tajribalar inobatga olinmoqda. Kelajakda yosh avlodning

faolligi va innovatsion yondashuvlar yordamida yashil iqtisodiyotning mustahkam poydevori yaratiladi. Bu esa ekologik barqarorlik va iqtisodiy taraqqiyot uchun muhim tayanch bo'lib xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ""O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF – 158-sonli Farmoni. https://lex.uz/ru/docs/-6600413
2. O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi. O'zbekiston Respublikasida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish strategiyasi – 2030. Toshkent, 2021
3. United Nations Environment Programme (UNEP). *Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication.* UNEP, 2011.
4. OECD. *Green Growth Indicators 2023.* Paris: Organisation for Economic Co-operation and Development, 2023.
5. European Commission. *The European Green Deal.* Brussels: European Commission, 2019.
6. U.S. Department of Energy. *Clean Energy Progress Report 2022.* Washington, DC, 2022.
7. World Bank. *Inclusive Green Growth: The Pathway to Sustainable Development.* Washington, DC: World Bank, 2012.
8. Asian Development Bank (ADB). *Asia's Journey to Prosperity: Policy, Market, and Technology over 50 Years.* Manila: ADB, 2020.
9. Xitoy Davlat Kengashi. *China's Policies and Actions for Addressing Climate Change.* Beijing, 2021.
10. Government of India. *National Solar Mission: Towards Building Solar* India. New Delhi, 2020.
11. www.stat.uz
12. www.lex.uz

# YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o‘g‘li

**2025. № 11**



© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.


Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.


““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz